

QORAQALPOQ PAREMIYALARINING MANTIQUIY-SEMIOTIK VA PRAGMATIK TABIATI

Orazbaev Zaman Jumabaevich

O‘zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi

Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi,
Nukus shahri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21425295>

Mantiqiy semantika zamonaviy mantiqning sohasi sifatida dastlab nemis matematigi va mutafakkiri G. Frege hamda amerikalik faylasuf, mantiqshunos olim Ch.Pirs asarlarida tilga olingan. Buning asosi matematik mantiqdan boshlanganligi sababli, til belgilari ma’nosining muvofiqlik qonuni tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham L.A.Novikov: “Mantiqiy semantika sun’iy, rasmiy tillarning ma’lum ma’nosini, mavhum tushuncha va belgilarni mazmunli ma’no tiliga tarjima qilish qoidalarini o‘rganadi”, deb fikr bildiradi [1].

G. Frege soni cheksiz gaplarga ega bo‘lgan tillarga haqiqiy baho berishda ulkan rol o‘ynaydigan kompozitsion prinsipni taklif etadi. Ushbu prinsip oddiy gaplar yig‘indisini o‘zgartirish va turlantirish orqali juda murakkab gaplarni tushuntirish imkonini beradi. M.A.Krongauzning fikricha, “mantiqiy semantikaning asosiy maqsadi mantiqiy ma’nodagi til modellarini, jumladan, tildagi nutqning haqiqiylik modelini yaratishdir” [2]. Demek, har bir narsa ko‘ringanidek bo‘lmaganidek, so‘zlar ham har xil ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin.

Mantiqiy semantika kategoriyalarida so‘z ma’nosi, tushuncha va belgilar o‘zaro ta’sir qilganda, ma’noning o‘zgarishi muayyan izchillik asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon asosida belgi, nom va uning ma’nosi o‘rtasidagi aloqalar yotadi. Shu sababli, semiotika (belgilar haqidagi fan) va mantiq sintezi sifatida shakllangan mantiqiy semantika tildagi ma’noviy munosabatlarni tadqiq etishning asosiy metodologiyasi bo‘lib xizmat qiladi.

Maqol va matallarning ma’no tuzilishi inson ongidagi mavhum va aniq fikrlash modellariga tayansa da, tildagi ushbu ma’nolarning tizimlashtirilishi hali ham murakkab masala bo‘lib qolmoqda. Xususan, nomlarning semantik tabiatini tahlil qilish, ularning son (ko‘plik) kategoriyalari bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganish va funksiyaga qarab ma’noning o‘zgaruvchanligini (variativligini) ochib berish kelajakdagi tadqiqotlarning asosini tashkil etadi.

Semiotika (yunoncha semeion — belgi, belgi-ishora) — belgilar tizimi haqidagi fan bo‘lib, u insoniyat jamiyatiga xizmat qiladigan sohalarida (til, madaniyat, urf-odat, kino va hokazo), tabiatda (hayvonot dunyosidagi kommunikatsiya) yoki insonning o‘z faoliyat va qobiliyatida (narsalarni ko‘rish, eshitish orqali qabul qilish, mantiqiy fikrlash) axborotning saqlanishi va qabul qilinishi bilan bog‘liq har xil belgili tizimlarning tuzilishi va xizmat qilishining umumiy masalalarini o‘rganadigan ilmiy fandır [3].

Belgilar haqidagi fan sifatida semiotikaning dastlabki asosiy prinsipleri tabiiy tilni kuzatish bilan bog‘liq holda Ch.S.Pirs va F. de Sossyur asarlarida keltirilgan. “Semiotika” atamasi dastlab rasmiy mantiq-matematika sohasi uchun qo‘llanilgan bo‘lsa, uning moddiy-mazmun jihatida Yevropa an’anasiga ko‘ra semasiologiya deb atalgan, keyinchalik bu ikki atama sinonim sifatida ishlatila boshlagan. Semiotikaning keng qamrovli obyektlari ichida umumiylik jihatida til va badiiy adabiyot o‘rtasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois, til va adabiyot semiotikasi gumanitar semiotikaning asosi hisoblanadi.

Maqol va matallarning lingvistik tabiatini tadqiq etishda ularni faqat tilning tasviriy vositalari sifatida qarash yetarli emas. Zamonaviy tilshunoslikda paremiyalarning mantiqiy-semiotik va pragmatik aspektlarining o'zaro bog'liqligini ochib berish tilning kognitiv va kommunikativ imkoniyatlarini yuqori darajada tahlil qilishga yo'l ochadi.

Paremiologik birliklarning, ya'ni maqol va matallarning tilda yashash va qo'llanish qonuniyatlarini tushunish uchun ularni kompleks ravishda o'rganish talab etiladi. Bu yo'nalishda mantiqiy-semiotik aspekt maqol va matallarning invariantlik asosini, ya'ni ularning har qanday transformatsiyalarga chidamli bo'lgan barqaror shaklini belgilab beruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Har bir maqol va matalning ichki tuzilishida, uning til qatlamlarida shakllangan jonli matni ostida muayyan universal mantiqiy formula yotadi. Ushbu mantiqiy model ko'pincha implitsit yoki eksplitsit shakldagi shartlilik ma'nosiga ega bo'ladi: masalan, "A" mazmunga daxldor "B" mazmunining mavjud bo'lishi shart yoki, aksincha, "A" ning semantik ma'nosi "B" elementi bilan oppozitsion (qarama-qarshi) munosabatga kirishishi mumkin. Aynan mana shunday qat'iy harakat qiluvchi mantiqiy shakllar maqol va matallarning semiotik tabiatini dalillaydi hamda ularning til tizimida barqaror, tayyor "belgi" sifatida xizmat qilishini ta'minlaydi.

Biroq paremiyalar tarkibidagi ushbu mantiqiy shakllar faqat quruq intellektual konstruksiyalar yoki statik kognitiv chizmalar emas. Ular o'z mazmuniga juda ulkan pragmatik potensialni singdirib turadi. Bu shuni anglatadiki, maqol va matalning mantiqiy tuzilishi uning kelajakdagi jonli nutq aktida qo'llanish funksiyasining dastlabki modelini oldindan belgilab beradi.

Qoraqalpoq paremiyalarining mantiqiy-semiotik tabiatini tadqiq etish ularning umumiy til tizimidagi invariant ma'no shaklini, kognitiv xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo'lsa, ularning pragmatik xususiyatini har tomonlama tahlil qilish ushbu ma'noviy tuzilmaning jonli tildagi faoliyatini, kommunikativ strategiyalarini va eng muhimi, xalq mentalitetidan kelib chiqadigan ta'sir kuchini ochib berish demakdir. Ushbu ikki aspekt (semiotika va pragmatika) bir-birini inkor etmaydi, aksincha, dialektik tarzda to'ldirib boradi.

Ya'ni, semiotika o'rganilayotgan til belgisiga semantik jihatdan yo'nalish berib, uning "nima ekanligini" tushuntirsa, pragmatika ushbu belgining jonli muloqotda "nima uchun" va "qanday" qo'llanilishini, ya'ni uning funksionalligini ilmiy jihatdan dalillaydi. Shu sababli, qoraqalpoq maqol va matallarining zamonaviy lingvistik tahlillari ushbu ikki fundamental sohaning uzviy va jonli sintezidagina o'zining to'liq, chuqur va fundamental ilmiy yechimini topa oladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Новиков Л.А. Семантика русского языка. - М., 1982. 15-с.
2. Кронгауз М.А. Семантика. - М., 2005. 36-с.
3. Тіл білімі терминдерінің түсіндірме сөздігі — Алматы. «Сөздік-Словарь», 2005 жыл. ISBN 9965-409-88-9.
4. Худайбергенова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Т. «Фан», 2013.
5. Юсупова Б. Паремнология Қарақалпақ халық нақыл-мақаллары тилинің лексика-семантикалық хәм лексика-тематикалық өзгешеликлери (Монография) -Нөкис: "Qaraqalpaqstan", 2024